XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 18-mart VII-24-29-3-52-K/26 Paxtakor tumani

2026-yilda Paxtakor tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ–1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–387-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 387-sonli qarori 2-xatboshi “v”-bandida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Shodmonovning 2026-yil 12-fevraldagi 02-24-sonli, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i B.Nurmuradov 2026-yil 9-fevraldagi 02-01-58-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Jizzax

viloyati hududiy boshqarmasining 2026-yil 13-martdagi 04-01/08-1118-sonli hulosa xatlari inobatga olinsin.

3. 2026-yil uchun Paxtakor tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Shodmonov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Uzaqov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Nurmuradov)lar bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar” masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Z.Jumaboyev zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan uch oy o‘tib kuchga kiradi.

Kengash raisi **SUVANQULOV SHOHHASAN MUHAMMAD O‘G‘LI**

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2026-yil 18-martdagi
VII-24-29-3-52-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Paxtakor tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari

Yig‘im turi	**Bir oyga (so‘mda)**	
	O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	**2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori**
“Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	345 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	172 500